

IJTIMOIIY TABAQALANISH VA DEKOMMODIFIKATSIYA, ESPING-ANDERSEN YONDASHUVINING NAZARIY TAHLILI

Suxrob Ochilov Ikromjonovich

*Toshkent Davlat Yuridik Universiteti
Magistratura va Sirtqi ta'limi fakulteti talabasi
E-mail: ochilovsuhrob57@gmail.com*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy davlat nazariyasining yetakchi namoyandalaridan biri bo'lgan Gøsta Esping-Andersenning yondashuvi asosida ijtimoiy tabaqalanish va dekommodifikatsiya tushunchalarining nazariy tahlili keltiriladi. Muallif Esping-Andersen tomonidan ilgari surilgan farovonlik davlatining uch modeli (liberal, konservativ-korporativ va sotsial-demokratik) doirasida fuqarolarning bozor mexanizmlariga qanchalik bog'liqligi, davlat tomonidan ta'minlanadigan ijtimoiy himoya darajasi hamda bu omillarning ijtimoiy tabaqalanish jarayoniga ta'siri tahlil etiladi. Maqolada shuningdek, dekommodifikatsiya jarayoni – ya'ni insonlarning yashash vositalari bozorga to'liq bog'liq bo'lmasdan, davlat tomonidan kafolatlangan huquqlar orqali ta'minlanishi – ijtimoiy tenglikni ta'minlashdagi markaziy omil sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy davlat siyosatini shakllantirishda Esping-Andersen yondashuvining amaliy ahamiyatini yoritishga qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** Esping-Andersen, ijtimoiy tabaqalanish, dekommodifikatsiya, farovonlik davlatlari, ijtimoiy siyosat, tenglik, liberal model, konservativ model, sotsial-demokratik model.*

***Аннотация.** В данной статье представлено теоретическое исследование социальной стратификации и декоммодификации на основе подхода Гёсты Эспинга-Андерсена — одного из ведущих теоретиков государства всеобщего благосостояния. Автор рассматривает степень зависимости индивидов от рыночных механизмов в рамках трёх моделей государства благосостояния, предложенных Эспингом-Андерсеном (либеральной, консервативно-корпоративной и социал-демократической), уровень социальной защиты, предоставляемой государством, а также влияние этих факторов на процессы социальной стратификации. Кроме того, анализируется понятие декоммодификации — ситуации, при которой средства к существованию индивидов не полностью зависят от рынка, а гарантируются государственными правами, — как ключевой фактор обеспечения социальной справедливости. Исследование направлено на выявление практической значимости подхода Эспинга-Андерсена в формировании современной социальной политики.*

***Ключевые слова:** Эспинг-Андерсен, социальная стратификация, декоммодификация, государства всеобщего благосостояния, социальная политика, равенство, либеральная модель, консервативная модель, социал-демократическая модель.*

***Annotation.** This article presents a theoretical analysis of social stratification and decommmodification based on the approach of Gøsta Esping-Andersen, one of the leading theorists of the welfare state. The author examines the extent to which individuals are dependent on market mechanisms within the three welfare state regimes proposed by Esping-Andersen (liberal, conservative-corporatist, and social-democratic), the level of social protection provided by the state, and how these factors influence social stratification processes. The article also explores the concept of decommmodification—where individuals' livelihoods are not solely tied to the market but*

are instead guaranteed by state-provided rights—as a central mechanism for promoting social equality. The study aims to highlight the practical relevance of Esping-Andersen's approach in shaping modern welfare policies.

Key words: *Esping-Andersen, social stratification, decommmodification, welfare states, social policy, equality, liberal model, conservative model, social-democratic model.*

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy davlat tushunchasi zamonaviy siyosiy-iqtisodiy tahlil va munozaralarning markaziy mavzularidan biriga aylandi. Ijtimoiy adolat, tenglik, fuqarolarning farovonligini ta'minlash hamda davlatning bu jarayonlardagi roli masalalari turli mafkuraviy oqimlar va nazariy yondashuvlar doirasida keng ko'lamda o'rganila boshladi. Xususan, farovonlik davlatlarining shakllanishi, ularning tarixiy-kontekstual xususiyatlari, institutsional tuzilmalari va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi tengsizlikka qanday ta'sir ko'rsatishi muhim ilmiy yo'nalishga aylandi. Xususan, Respublikamiz Konstitutsiyasining 1-moddasida: O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb begilanib qo'yilganligi yurtimizda yaqin kelajakdagi islohatlar aynan ijtimoiy soha tevaragida bo'lishidan dalolat beradi [1].

Mazkur sohada daniyalik sotsiolog Gøsta Esping-Andersenning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Uning 1990-yilda chop etilgan "The Three Worlds of Welfare Capitalism" nomli monografiyasi ijtimoiy davlatlarni tipologik asosda tasniflashga uringan fundamental tadqiqot bo'lib, farovonlik davlatlarining uch modeli – liberal, konservativ-korporativ va sotsial-demokratik – o'rtasidagi farqlarni aniqlash orqali yangi nazariy paradigmaga asos soldi. Ushbu tasnif davlatning bozorga nisbatan roli, ijtimoiy xizmatlarning universalligi yoki selektivligi, hamda fuqarolarning iqtisodiy ehtiyojlarining qondirilish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir [2; pp 83].

Esping-Andersen taklif qilgan yondashuvning markaziy tushunchalaridan biri – **dekommodifikatsiya** (ya'ni inson ehtiyojlarining bozor mexanizmlaridan mustaqil tarzda qondirilishi) – hisoblanadi. Bu atama orqali muallif fuqarolarning mehnat bozori va tovar almashinuvidan mustaqil tarzda yashash imkoniyatiga ega bo'lish darajasini aniqlashga urinadi. Ya'ni, agar fuqaroga mehnat bozorida ishtirok etmasdan ham muayyan darajadagi farovonlik kafolatlanadigan bo'lsa, u holda bu jamiyat yuqori darajadagi dekommodifikatsiyaga ega hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, Esping-Andersen ijtimoiy siyosatni faqat kambag'allarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moddiy yordam vositasi emas, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi va tabaqalanishni qayta ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi institut sifatida baholaydi.

Demak, ijtimoiy davlatni tahlil qilishda uni faqat fiskal yuklama yoki byudjet sarflari orqali emas, balki uning ijtimoiy tuzilma, ijtimoiy birdamlik va adolat tamoyillariga qanday hissa qo‘shayotganini hisobga olish zarurati tug‘iladi. Esping-Andersenning bu yondashuvi ayniqsa zamonaviy global muammolar – iqtisodiy inqirozlar, migratsiya oqimlari, yangi ish shakllari – sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada Esping-Andersen tomonidan ishlab chiqilgan nazariy mezonlar asosida ijtimoiy tabaqalanish va dekommodifikatsiya tushunchalarining mazmuni, ularning zamonaviy ijtimoiy siyosat konsepsiyalarida qanday tatbiq etilayotgani hamda ushbu yondashuv atrofida shakllangan tanqidiy baholar har tomonlama tahlil qilinadi.

METODLAR

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy davlat va unga oid nazariy qarashlarni o‘rganishda sifat (qualitative) metodologiyaga asoslangan yondashuv qo‘llanildi. Asosiy urg‘u Gøsta Esping-Andersenning farovonlik davlatlari haqidagi konseptual modeli va uning tarkibiy elementlari, xususan, dekommodifikatsiya tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilishga qaratildi. Shu munosabat bilan tadqiqotda kontent tahlil (content analysis) usuli muhim o‘rin tutdi. Bu usul orqali Esping-Andersenning asosiy asarlari, xususan *“The Three Worlds of Welfare Capitalism”* (1990) va uning keyingi tadqiqotlari, hamda mazkur yondashuvga oid ilmiy-adabiy manbalar tizimli ravishda tahlil qilindi [4, 34 p].

Metodologik jihatdan maqola ijtimoiy nazariy tahlil (social theoretical analysis) doirasida olib borildi. Bu yondashuv orqali ijtimoiy davlatga oid yondashuvlar Esping-Andersen konsepsiyasiga nisbatan qiyosiy tarzda ko‘rib chiqildi. Ayniqsa, ijtimoiy tabaqalanish, tenglik va fuqarolarning bozorga bog‘liqlik darajasini belgilovchi omillarni ochib berishga alohida e‘tibor qaratildi. Tadqiqotda shuningdek, dekommodifikatsiya indeksleri, ularning shakllanish mezonlari va amaliy siyosiy modelga tatbiqi haqidagi mavjud ilmiy ishlanmalar ham o‘rganildi. Bu orqali nazariy yondashuvlarning empirik asoslari hamda ularning zamonaviy ijtimoiy siyosatdagi tatbiqiy jihatlari tahlil etildi.

Bundan tashqari, tanqidiy tahlil yondashuvi (critical review approach) asosida Esping-Andersen konsepsiyasiga bildirilgan asosiy ilmiy tanqidlar ko‘rib chiqildi. Ayniqsa, ushbu modelning gender tenglik, migratsiya oqimlari, postindustrial mehnat bozori va neoliberal siyosat kontekstidagi dolzarbligi masalalari baholandi. Qator olimlarning (masalan, J. Lewis, B. Palier, T. Huber) asarlari orqali Esping-Andersen modeli takomillashuv yo‘nalishlarida qanday yangilanishlarga duch kelganini aniqlashga harakat qilindi [6, 51 p]. Shu tariqa, tadqiqotda nazariy yondashuvlar

tahlili, kontent tahlil, qiyosiy metod hamda tanqidiy ko‘rib chiqish metodlari uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanildi. Bu esa Esping-Andersenning yondashuvini har tomonlama tahlil qilish va uning zamonaviy ijtimoiy siyosat konsepsiyalari bilan o‘zaro aloqadorligini ochib berishga xizmat qildi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida Gøsta Esping-Andersenning farovonlik davlatlari haqidagi yondashuvi zamonaviy ijtimoiy siyosat nazariyalarida muhim tahliliy asos sifatida shakllangani aniqlandi. Eng avvalo, Esping-Andersen taklif qilgan farovonlik davlatlarining uch modeli (liberal, konservativ-korporativ va sotsial-demokratik) fuqarolarning ijtimoiy xavfsizlik tizimiga kirish imkoniyatlari, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar hajmi hamda ijtimoiy tenglikka erishish mexanizmlari nuqtayi nazaridan tub farqlarga ega ekani tasdiqlandi.

Dekommodifikatsiya tushunchasi ushbu farqlarning tahlilida markaziy kategoriya sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqotda liberal modelda fuqarolar asosan bozor kuchlariga tayanishga majbur bo‘lishi, davlatning aralashuvi esa minimal darajada bo‘lishi natijasida past darajadagi dekommodifikatsiya kuzatilishi aniqlangan bo‘lsa, sotsial-demokratik modelda esa universallik, tenglik va yuqori darajadagi ijtimoiy himoya hisobiga dekommodifikatsiya ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori ekani ko‘rsatildi. Konservativ-korporativ modelda esa ijtimoiy himoya ko‘proq an’anaviy oilaviy struktura va ishga bo‘lgan bog‘liqlik asosida taqsimlanadi, bu esa tabaqalanishning qayta ishlab chiqarilishini mustahkamlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi [3,12 p].

Tadqiqot Esping-Andersen konsepsiyasining nafaqat ijtimoiy siyosatning strukturaviy jihatlarini, balki ularning ijtimoiy tabaqalanishga bo‘lgan ta‘sirini tushuntirishda ham samarali konseptual vosita ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, uning dekommodifikatsiyani iqtisodiy mustaqillikni ta‘minlovchi omil sifatida talqin qilishi zamonaviy farovonlik siyosatlarining ijtimoiy adolat tamoyillari bilan bog‘liqligini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko‘ra, Esping-Andersen modeli zamonaviy global muammolar, masalan, mehnat bozorining segmentatsiyasi, gender tengsizligi, migratsiya oqimi va neoliberal islohotlar fonida qator nazariy va amaliy tanqidlarga duch kelmoqda. Biroq, tanqidiy yondashuvlarga qaramay, uning yondashuvi ijtimoiy davlatning ijtimoiy munosabatlarni qayta tashkil etishdagi roli va ijtimoiy himoya tizimlarining tabaqalanishga bo‘lgan ta‘sirini chuqur tahlil qilishda dolzarbligicha qolmoqda [3, 67 p].

MUNOZARA

Tadqiqot natijalari Gøsta Esping-Andersenning farovonlik davlatlariga oid yondashuvi ijtimoiy siyosatni tushunishda nafaqat strukturaviy-institutsional, balki

normativ-mafkuraviy nuqtayi nazardan ham chuqur tahlil qilish imkonini berishini ko'rsatdi. Ayniqsa, dekommodifikatsiya tushunchasining markaziy komponent sifatida ilgari surilishi – fuqarolarning yashash vositalarini faqat bozor vositalari orqali emas, balki davlat tomonidan kafolatlangan huquq va xizmatlar orqali ta'minlanishi – zamonaviy ijtimoiy tenglik masalasini yangicha nuqtai nazardan ko'rib chiqishga yo'l ochadi.

Shu bilan birga, Esping-Andersen modeli butunlay universal yondashuv emasligi ham amaliy va nazariy jihatdan muhokama qilinmoqda. Avvalo, uning modeli G'arb davlatlari – xususan, Yevropa va Shimoliy Amerika tajribalariga asoslangan bo'lib, rivojlanayotgan yoki aralash iqtisodiyotga ega mamlakatlar ijtimoiy siyosatiga to'liq tatbiq etilishi cheklangan. Boshqacha aytganda, model postindustrial jamiyatlar kontekstida muvaffaqiyatli ishlasa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimlarining norasmiy mehnat bozori bilan chambarchas bog'liqligi, institutsional zaiflik va moliyaviy cheklovlar uning amaliy ahamiyatini pasaytiradi.

Ikkinchidan, model gender munosabatlari, migratsiya, irqiy tengsizlik kabi zamonaviy ijtimoiy differensiallashuv omillarini yetarli darajada qamrab olmaydi. Tadqiqotchilar, xususan, Jeyn Lyuis (Jane Lewis) tomonidan ilgari surilgan fikrlarda ayollarning mehnat bozorida roli, parvarish mehnatining institutsional ko'rinishlari va genderga asoslangan tengsizliklar Esping-Andersen tipologiyasida ikkilamchi o'rinda qolayotgani tanqid qilinadi. Shuningdek, neoliberal iqtisodiy siyosatlar fonida sodir bo'layotgan institutsional transformatsiyalar Esping-Andersen modelining dolzarbligiga yangi savollarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy xizmatlarning xususiyashtirilishi, tanlab yordam ko'rsatish mexanizmlarining kengayishi va ijtimoiy siyosatning bozorga yaqinlashtirilishi kabi jarayonlar dekommodifikatsiya darajasini pasaytirishga olib kelmoqda. Bu esa Esping-Andersen ta'riflagan sotsial-demokratik modelning barqarorligi va davr talablariga moslashuvi borasida muayyan xavotirlarni yuzaga chiqaradi.

Shunday bo'lsa-da, Esping-Andersenning yondashuvi ijtimoiy davlatni faqat iqtisodiy funksiyaga ega bo'lgan institut sifatida emas, balki ijtimoiy tuzilmani shakllantiruvchi, tenglik va adolatni ta'minlashga xizmat qiluvchi kompleks tizim sifatida ko'rishga imkon beradigan nazariy asos bo'lib qolmoqda. Aynan shu jihati uning modelini hozirgi davr global chaqiriqlari sharoitida qayta tahlil qilish va rivojlantirishga undaydi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Gøsta Esping-Andersenning farovonlik davlatlariga oid yondashuvi, ayniqsa dekommodifikatsiya (ya'ni, fuqarolarning

tirikchiligi bozor munosabatlariga to'liq bog'liq bo'lmagan darajada ta'minlanishi) tushunchasi, zamonaviy ijtimoiy siyosat nazariyasining muhim tahliliy vositasiga aylangan. U ushbu tushuncha orqali farovonlik davlatining bozorga nisbatan mustaqil ijtimoiy institut sifatidagi rolini aniqlashtiradi. Dekommodifikatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, fuqarolar hayotini olib borishda bozorga qaramlik shunchalik kamayadi va ijtimoiy xizmatlar ularga kafolatli ravishda taqdim etiladi.

Esping-Andersen o'zining klassik uch modeldan iborat tasnifida – liberal, konservativ (korporativ) va sotsial-demokratik farovonlik davlatlari turlarini belgilab, har birining ijtimoiy himoya tizimlari, davlat aralashuvi darajasi va tenglikka erishish mexanizmlari o'rtasidagi farqlarni tahlil qilgan. Ayniqsa, u ijtimoiy xizmatlarning taqsimlanish mexanizmi, yordamning universalligiga asoslangan yondashuvlar (xususan, Skandinaviya modellari), sinfga asoslangan yondashuvlar (korporativ modellarda), hamda bozorga yaqinlashgan yondashuvlar (liberal modellarda) orqali fuqarolarning davlat xizmatlariga kirish darajasini farqlaydi.

Ushbu yondashuv nafaqat nazariy asos sifatida, balki empirik tadqiqotlar uchun ham muhim platformani taqdim etadi. U orqali farovonlik davlatlarining turli institutsional konfiguratsiyalari va ularning jamiyatdagi tenglik, adolat, va fuqarolik huquqlari taqsimotiga ta'siri chuqur o'rganilishi mumkin. Aynan shuning uchun Esping-Andersenning ishlari bugungi kunda ham ijtimoiy siyosatshunoslik, sotsiologiya, va davlat boshqaruvi sohalarida dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-modda. 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. Princeton University Press, 1990.
3. Esping-Andersen G. Social Foundations of Postindustrial Economies. Oxford University Press, 1999.
4. Marshall T.H, Citizenship and Social Class, Cambridge University Press, 1950.
5. Wilensky H.L & Lebeaux, C.N. (). Industrial Society and Social Welfare, Free Press, 1958.
6. Castles, F.G, The Social Democratic Image of Society, Routledge, 1978.
7. Bekzod o'g'li, J. F. (2024). Kriminalistik huquq va jinoyatlarning oldini olish. International innovation and researches, 1(3), 53-55.
8. Bekzod o'g'li, J. F. (2024). O 'zbekistonda inson huquqlari va milliy qonunchilikni takomillashtirish. Международный журнал теории новейших научных исследований, 2(10), 173-176.